

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA HARBIY- VATANPARVARLIK TARBIIYASINING MAQSADI VA VAZIFALARI

Mamajonov Raximjon Akramjonovich

Farg'ona davlat universiteti Harbiy ta'lim fakulteti dotsenti

Abdulazizov Dadamirza Ulugbek o'g'li

Olmonjon Olimjonov Ilhomjon o'g'li

Mahmudov Aliakbar Muhidin o'g'li

Farg'ona davlat universiteti Harbiy ta'lim fakulteti talabalari

Annotatsiya: *Ushbu maqola Umumiy o'rta ta'lim maktablarida yoshlarni harbiy vatanparlik tarbiyasining maqsadi, vazifalari, mazmun mohiyati tarbiyaviy jarayonlarning asosiy yo'nalishlari haqida yoritilgan. Yoshlarga ularning bolalik yillaridan boshlab, O'zbekiston xalqining boy an'analari va milliy qadriyatlarini, xalqimizning buyuk o'tmishi xaqidagi bilimlarni, shuningdek, o'z Ona-Vatani O'zbekistonning sadoqatli himoyachilari bo'lishini ongli ravishda his qilishlarini singdirib borish zarurligi, hozirgi globallashuv davrida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining mazmuni va jarayoni, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy va iqtisodiy islohatlarga bog'liq bo'lgan bir qator omillar haqida so'z yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *Yoshlar, vatanparvarlik, islohotlar, ta'lim-tarbiya, omillar, jangchilar.*

Har qanday xalqning tarixi va madaniyati yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash uchun zamin yaratadi. Shaxsning barkamol rivojlanishi uchun biologik mavjudlik vaqt oralig'ida o'z o'rnini, maqsadini, vazifasini tushunish juda muhimdir. Bu mulohazalarning barchasi vatanparvarlik, Vatan va u bilan bog'liq barcha narsalar haqida munozaralarga olib kelishi muqarrar. Biroq, asosiy asoslarni tushunmasdan, bunday fikrlash juda uzoqqa olib kelishi mumkin, shuning uchun bolalarni to'g'ri vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasiga juda katta e'tibor berilmoqda.

Mamlakatda amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy tamoyil va ustuvor yo'nalishlari, hozirgi murakkab globallashuv davrida, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir sharoitda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bilan bog'liq dolzarb vazifalar va ularni hal etish yo'llari, davlat va nodavlat tashkilotlar, oila, mahalla, ta'lim-tarbiya institutlarining bu boradagi roli va ahamiyatini, o'zaro hamkorligini milliy va xalqaro huquqiy normalarni hisobga olish zarur.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim va tarbiya olayotgan yoshlarning harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumati, ta'lim boshqarmalarining muhim vazifalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Yoshlarga ularning bolalik yillaridan boshlab, O'zbekiston xalqining boy an'analari va milliy qadriyatlari, xalqimizning buyuk o'tmishi xaqidagi bilimlarni, shuningdek, o'z Ona-Vatani O'zbekistonning sadoqatli himoyachilari bo'lishini ongli ravishda his qilishlarini singdirib borish zarur.

Hozirgi globallashuv davrida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining mazmuni va jarayoni, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy va iqtisodiy islohatlarga bog'liq bo'lgan bir qator omillar bilan boyitilishi kerak.

Bu omillar quyidagilardir hisoblanadi:

Mamlakatda amalga oshirilayotgan islohatlar jarayonidagi inson, ya'ni shaxs rolining o'sishi, uning mamlakat mudofaasidagi ahamiyati, harbiy xizmatni tashkillashdagi tub o'zgarishlar, zamonaviy qurolli kurashlar shakl va usullarining takomillashuvi va boshqalardir.

Yoshlarni Vatan himoyasiga tayyorlash ishlarining tubdan o'zgarishi harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining mazmuni, shuningdek, tashkiliy-uslubiy jihatlardan to'liq foydalanishni taqozo etadi. Buning uchun, tarbiyaviy tadbirlarning samaradorligini tahlil qilish, an'anaviy tarbiya shakllarini tanlash va mustahkamlash, hozirgi sharoitda harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi vazifalarini to'la amalga oshira oladigan yangi shakl va uslublarni izlash va ularni hayotga tatbiq etish lozim. Bunda asosiy e'tiborni harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining shakl va uslublarini tashkiliy jihatdan ta'sirchanligiga va ularni Vatan himoyachisi shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilganligiga qaratish zarur.

Vatan himoyasiga shaylik, o'quvchilar shaxsini har tomonlama rivojlantirish, ular tomonidan jamiyat madaniyati boyliklarini o'zlashtirishning natijalaridan kelib chiqadi.

Hozirgi sharoitda harbiy faoliyatni murakkablashib borishi, bugungi kun jangchisiga qo'yilayotgan talablarning o'sishi, o'quvchi Yoshlarning harbiy-vatanparvarlik tarbiyasiga yangicha nazar bilan qarash va yondoshishni taqozo etmoqda. Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasidagi qadriyatlar va sifatlarni shakllantirishda asosiy yetakchi rol ta'limga, ya'ni o'qitishga tegishlidir. Lekin bu inkor etilmaydigan nazariy xulosa, fan asoslarini o'qitayotgan o'qituvchilarning uslubiy materiallari va amaliy ishlarida to'la amalga oshirilmayapti. Umumta'lim fanlari o'qituvchilarining aksariyat qismi harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi vazifalariga yuzaki yondoshadilar va ko'p hollarda o'zlari o'qitayotgan fanlarning bu vazifalarni yechishdagi imkoniyatlarini tasavvur ham qilmaydilar. Vatan himoyachilarini tarbiyalash ishlariga pedagogik jamoalari tomonidan CHaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik rahbari, «Vatanparvar» tashkiloti, Mudofaa ishlari bo'limlari va yoshlar tashkilotlarining tor doiradagi faoliyatlari deb qaraladi. Lekin shu narsa aniqki, agar o'quvchilarning muhim hayot faoliyatlarining biri o'quv

faoliyati tinchlikni saqlash, mamlakat mudofaasini mustahkamlash va uning himoyasiga shay bo'lish kabi yuksak g'oyalar bilan boyitilmasa, u holda ularni vaqtinchalik tadbirlar vositasida o'rnini to'ldirish samarasiz bo'lib chiqishi mumkin.

Bugungi kunda keng fikrlovchi, chuqur e'tiqodli insonlarga vatanparvar fuqaro bo'lishi mumkin.

Bo'lajak vatan himoyachisini tarbiyalash, eng avvalo vatanpavarlik tuyg'usidagi intilishlar bilan to'ldirilgan yoshlar turmush tarzini tashkillash demakdir. Bunga esa tarbiya muassasalarining o'zaro hamkorlikdagi harakatlari bilan erishish mumkin.

Turli jamiyat institutlari, bir yo'nalishda harakat qilib, bir-birlarini takrorlamasliklari lozim. Oilada bolaga singdiriladigan dastlabki vatanparvarlik tushunchalari va tuyg'ulari, o'quv yurtlarida fan asoslarini o'rganish jarayonida, ularning ilmiy anglash darajasiga ko'tariladi. Yoshlar harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining eng asosiy bosqichi hisoblangan armiya safidagi harbiy xizmat vaqtida shakllangan shaxs sifatlari Vatanni himoya qilishga shaylik sifatida tahlil qilinadi. yoshlar o'rtasida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining samaradorligini oshirish, ularda yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlar, fuqarolik pozitsiyasi, Vatanni sevish va uni ko'z qorachig'idek asrashga qaratilgan bilim va ko'nikmalarni oshirish, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining vatanparvarlik tuyg'usini yuksaltirish, Vatanga fidoyilik va sodiqlik bilan xizmat qilishga bo'lgan mas'uliyatini oshirish, milliy armiya saflarini zamonaviy bilim va professional malakaga, mustahkam iroda, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan yoshlar bilan to'ldirib borish imkonini beradi.

Yuqorida aytib o'tilganlardan xulosa qilish mumkinki, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining maqsadini biror-bir jumla bilan ifodalab bo'lmaydi. Bu tarbiya ishlarining ushbu yo'nalishini ko'p qirraligi va murakkabligidan dalolat beradi, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining maqsad va vazifalari, tarbiyaviy jarayonning asosiy yo'nalishlarini o'zida mujassamlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. SH.Tilavoldiyevning " Harbiy vatanparvarlik asoslari" darsligi Farg'ona 2023 yil
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son



4. Inson huquqlari Umumjahon Deklarasiyasi. BMTning O'zbekiston Respublikasidagi Vakolatxonasi. Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi. Toshkent. 1998.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3160-son "Ma'naviy ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishnin yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida "gi Qarori. // Xalq so'zi. 2017

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi Farmoyishi./Xalq so'zi. 2017